



Yusuf KUSHAKOV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b
E-mail: yusufkushakov1962@gmail.com

F.f.n, dotsent U.Yo 'ldoshev taqrizi asosida

SPECIFIC FEATURES OF AVIATION TERMS IN UZBEKISTAN AND ENGLISH

Annotation

The article discusses the specific features of aviation terms in Uzbek and English, as well as terms related to the aviation industry in Uzbek and English, and their structural features. Structural study of words and terms used in the aviation industry allows language speakers to increase their vocabulary and eliminate problems associated with the correct use of words in communication. To date, the semantic relationship of aviation terms has not been sufficiently clarified, and their linguistic properties have not been given due importance. This is a problem that awaits its solution, because we can see that the development of aviation in recent years has given rise to the emergence of new terms, in this regard, this article approaches this issue scientifically.

Key words: Aeronautics, term, aviation, structure, simple root word, compound word, terminology, conceptual meaning, lexical unit, linguistic analysis, extralinguistic factors, phrase, dictionary, method.

ОСОБЕННОСТИ АВИАЦИОННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются специфические особенности авиационных терминов на узбекском и английском языках, а также терминов, связанных с авиационной отраслью на узбекском и английском языках, и их структурные особенности. Структурное изучение слов и терминов, используемых в авиационной отрасли, позволяет носителям языка увеличить свой словарный запас и устранить проблемы, связанные с правильным использованием слов в общении. На сегодняшний день семантическая связь авиационных терминов недостаточно выяснена, а их языковым свойствам не придано должного значения. Это проблема, которая ждет своего решения, поскольку мы видим, что развитие авиации в последние годы породило появление новых терминов, в связи с этим данная статья подходит к этому вопросу с научной точки зрения.

Ключевые слова: Аэронавтика, термин, авиация, структура, простое корневое слово, сложное слово, терминология, концептуальное значение, лексическая единица, лингвистический анализ, экстралингвистические факторы, фраза, словарь, метод.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AVIASOZLIK TERMINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

O'zbek va ingliz tillarida aviasozlik terminlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda o'zbek va ingliz tillaridagi aviatsiya sohasiga doir terminlar va ularning strukturaviyxususiyatlari haqida so'z boradi. Aviatsiya sohasida qo'llaniladigan so'z va atamalarni strukturaviy jihatdan o'rganish til sohiblarining so'z boyligini oshirishga va so'zlarni muloqot jarayonida to'g'ri qo'llash bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga imkon beradi. Bugungi kungacha aviasozlik terminlarining o'zaro semantik aloqasi yoritilishi yetarli darajada bo'lmagan, ularning lingvistik xususiyatiga ahamiyat berilmagan. Bu esa o'z yechimini kutayotgan masala, sababi so'nggi yillardagi aviasozlikning rivojlanishi yangi terminlar paydo bo'lishiga turtki bo'layotkanini ko'rishimiz mumkin shu jihatdan ushbu maqolada bu masalaga ilmiy jihatdan yondashilgan.

Kalit so'zlar: Aviasozlik, termin, aviatsiya, struktura, sodda tub so'z, qo'shma so'z, terminologiya, konseptual ma'no, leksik birlik, lingvistik tahlil, ekstralingvistik omillar, ibora, motivatsion termin, lug'at, usul.

Kirish. Jahonda tilshunosligida xalqlar madaniyati kishilar o'rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yo'nalish – lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda jadal rivojlanayotgan, tilda o'z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan soha sifatida talqin qilish mumkin. Ijtimoiy ongning shakllanish omillarini tahlil qilish turli madaniyatlarining o'zaro munosabatlarini va o'zaro tushunish mexanizmlarini chog'ishtirma tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bu esa, o'z navbatida, tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarining tadqiq qilinishiga asoslangan yangi tadqiqotlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki dunyo davlatlarining ham yuksak darajada rivojlanishiga ulkan hissa qo'shayotgan sohalaridan biri bu –aviatsiyadir. Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti, ularning alohida tarmoqlarining rivojlanishi barcha sohalar singari tilshunoslikda ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda ilm-fanning barcha sohalarida erishilgan sezilarli yutuqlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar oqimining tobora ortib borishi sohalariga oid terminlar muammosi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy jihatdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bundan tashqari, boshqa sohalar kabi aviatsiya sanoatining ham rivojlanishi, aviatsiya texnologiyalari tizimlarining murakkablashuvi aviatsiya faoliyati sohasida terminlar tadqiqi

muammosiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Hech kimga sir emaski, aviatsiya texnologik jihatdan jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, uning samaradorligi aviatsiya tarmog'i doirasida faoliyat yuritadigan xodimlarining kasbiy mahorati va malakasiga bog'liq. Shu sababli ushbu keng qamrovli soha bilan o'z kelajagini barpo etmoqchi bo'lganlar va ayni shu jabhada faoliyat olib boruvchilar chuqur bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lish bilan bir qatorda soha doirasida qo'llaniluvchi til xususiyatlari vaunda qo'llaniluvchi so'zlardannutqiy jarayonda to'g'ri foydalanish, ularning tarkibiy jihatdan qanday tuzilganligiva shu kabilarniham batafsil o'rganmog'i ahamiyatlilijihatlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola ham aynan shu jihatlarni ochib berishga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi hududida aviatsiya terminologiyasi eng dolzarb, hali o'rganilmagan qirralari mavjud mavzu hisoblanadi, shu sababli bu maqolada ushbu mavzuni yanada chuqurroq yoritib berishga hamda o'zbek terminshunoslik yo'nalishida yana bir yangi qadam qo'yishga harakat qilish ko'zda tutilgan. Aviatsiya terminlarini tavsiflashda ularning kelib chiqishi, leksik va grammatik xususiyatlari, strukturaviy turlari, turli gap bo'laklariga mansub termin elementlarining termin yasashdagi o'rni va leksik-semantik xususiyatlarini (polisemiya, sinonimiya, antonimiya) o'rganish aviatsiya terminologiyasi tizimida ayniqsa dolzarbdir.

Chet tili (Ingliz tili) xalqaro muloqot tillardan biridir. Aviatsiya adabiyoti va texnik hujjatlarining katta qismi ingliz tilida nashr etiladi; dunyoning turli mamlakatlarida paydo bo'lgan aviatsiya sanoatidagi ko'plab texnologik yangiliklar, qoida tariqasida, dastlab inglizcha nomlarga ega. Bundan tashqari, eng ko'p motorli aviatsiyalar ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari ekanligini yodda tutish kerak. Ikkinchi g'oyat ulkan va eng rivojlangan davlatlardan hisoblangan Fransiya, Shvetsiya, Shveysariya, Belgiya asosan fransuz tilida gaplashuvchi mamlakatlar sirasiga kiradi va biz fransuz tilidagi aviatsiya terminlarini ham ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Terminologiya takomillashuv jarayonida bir nechta rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mashinasozlikning yetakchi tarmoqlaridan biri aviatsiyasozlik hisoblanadi. Ushbu soha terminologiyasi tobora ko'proq talab qilinmoqda va hozirgi sharoitda muhim ahamiyatga ega. Aviatsiya sanoati, aviatsiyaning texnik qurilmasi, shuningdek, uyda, shaxsiy foydalanishda va ishlab chiqarishda ishlatiladigan turli xil mashina va mexanizmlar bilan bog'liq terminlar hayotimizda doimiy ravishda uchraydi. Ushbu terminlarni bilish bugungi kunda nafaqat mutaxassislar, balki shaxsiy aviatsiyalari yoki qishloq xo'jaligi texnikasi bo'lgan oddiy odamlar uchun ham majburiy bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek va ingliz tillarida aviasozlik terminlarining o'ziga xos xususiyatlari "aviasozlik terminlari" leksik-semantik sohasi alohida ajratilgan, uning shakllanish tarixi va tizim xususiyatlari tahlil qilingan va batafsil tillararo taqqoslash berilgan. Jahon tilshunosligida leksikografiya va terminologiya masalalari G'arb olimlari De Sossyur, Sh.Balli, A.Seshe, A.Me, J.Vandries kabilar tomonidan o'rganilgan. Rus tilshunoslari D.S. Lotte, R.G.Piotrovskiy, A.D.Xayutin, L.V. Pumpyanskiy, O.S.Axmanova, L.V.Sherbalar ham o'z asarlarida terminshunoslik haqida gapirib o'tishgan. B. N. Golovin va R.Yu. Kobrin kabi tadqiqotchilarning ta'rif berishicha, termin professional tushunchani ifodalash va shakllantirish, ilmiy va kasbiy-texnik obyektlar vaular o'rtasidagi munosabatlar hamda ko'nikmalarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan, o'zining maxsus ma'nosiga ega bo'lgan so'z yoki tobe so'z birikmasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Hozirgi vaqtda xorijiy ishlab chiqaruvchilarning aviatsiyalari va qishloq xo'jaligi texnikalari eng mashhurdir. Ingliz tilida yozilgan texnik hujjatlar, aviatsiya va boshqa mexanik va elektr texnika vositalarini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha turli tavsifalar oqimi ham ortib borayotgani ajablanarli emas. Afsuski, hozirgi vaqtda ingliz va fransuz tillaridagi texnik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Bunday terminlarning maxsus lug'atlari va umumiy oddiy lug'atlari yetarli emas, avtomashinalar va qishloq xo'jaligi texnikasiga texnik xizmat ko'rsatishga oid tarjima qilingan texnik hujjatlarda juda jiddiy muammolar mavjudligi va ularni bartaraf etish katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi davrda aviatsiya keng tarmoqlarga soha bo'lganligi sababli unda ishlatiladigan har bir so'z grammatik yoki strukturaviy jihatdan o'z ichki tuzilishi va xususiyatlariga ega. So'zlarning tuzilishiga ko'ra 4 xil turi mavjud, ya'ni sodda, qo'shma, juft va takroriy so'zlar. Sodda so'zlar bir asosdan iborat so'zlar bo'lib, ular o'z o'rnida sodda tub va sodda yasama so'zlarga bo'linadi. Sodda tub so'zlarning tarkibi faqatgina bir o'zakdan tashkil topadi va ularga hech qanday yasovchi qo'shimchalar qo'shilmaydi. Terminlar bilan bir qatorda terminologiya tomonidan o'rganiladigan boshqa maxsus leksik birliklar ham mavjud. Ularning kelib chiqishi, tipologiyasi, shakllari, mazmuni, faoliyati va qo'llanilishi o'rganilgan, ingliz va fransuz tillarida aviatsiya terminlarini lingvistik va ekstralingvistik darajada tavsiflangan. Aviatsiya terminlari lingvistik tahlil qilishda ularning kelib chiqishi (asl va o'zlashtirilgan terminlar ajratiladi), leksik va grammatik xususiyatlari (termin elementlarining nutqning ma'lum qismlariga munosabati), leksik va semantik xususiyatlari (ko'p ma'noning mavjudligi, munosabati) tavsiflangan. Sinonimiya, antonimiya bir

so'zli terminlarning so'z yasash tarkibi va qo'shma otlarning grammatik tuzilishi, shuningdek, termin hosil qilishda turli xil nutq qismlariga tegishli termin elementlarining roli ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

professional muloqotda;

ma'lum bir milliy tilda o'zini namoyon qiladigan maxsus vositalarni tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarning yetishmasligi;

moddiy madaniyat qadriyatlarini yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat sohasida inson tafakkuri evolyutsiyasi jarayonini aks ettirish natijasida paydo bo'lgan leksik birliklarga asoslangan kasbiy aloqa;

ilmiy bilimlarni takomillashtirishni hisobga olgan holda maxsus lug'at va soha terminologiyasini nazariy-uslubiy asosda yanada tartibga solish maqsadida turli tuzilishga ega tillardagi maxsus til birliklari;

terminlarning semantikasini tahlil qilishning ahamiyati;

fan-texnika taraqqiyoti va kasbiy madaniyatni tezlashtirish nuqtai nazaridan aviatsiyasozlik sanoatining rivojlanish darajasini aks ettiruvchi xalqaro ilmiy-texnikaviy axborot almashtiruvini kengaytirish;

zamonaviy sanoat lug'atlarida yetarli darajada to'liq ma'lumotlarning yo'qligi, bu professional mutaxassislar va tarjimonlar ishinig o'zaro aloqasini qiyinlashtiradi;

aviatsiya ishlab chiqaruvchilar, avtokorxonalar va firmalar tomonidan professional foydalanishga joriy qilingan aviatsiya terminologiyasining hozirgi holati to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligi;

tilda umumiy terminlarning maxsus maqsadlarda qo'llanilishiga bag'ishlangan asarlarning, kasbiy muloqot holatlarida maxsus terminlar yordamida texnik ma'lumotlarni so'zlashuv uchun umumiy lug'atning yo'qligi;

maxsus maqsadlar uchun tillarning hududiy variantlarining sekin rivojlanishi (ularning eng asosiylari Britaniya inglizlari va Amerika inglizlari), ularning rivojlanishiga milliy tafakkur kuchli ta'sir ko'rsatadi;

Britaniya va Amerika aviatsiyasozlik an'analarini hisobga olgan holda ingliz terminlarini qiyosiy o'rganishning amaliy yo'qligi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminologiya muammolarini o'rganish tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib ko'rinadi. Zamonaviy dunyoda terminologiya axborot manbai, mutaxassislikni egallash quroli, hatto ki fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish vositasi bo'lib, odamlar o'rtasidagi muloqot va muloqotda yetakchi o'rin tuta boshladi. Terminologiya axborot manbai bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda, u lug'atning tashqi ta'sirlarga nisbatan eng sezgir qismidir. Aynan unda jamiyatning tilga ta'siri aniq namoyon bo'ladi, bu esa undan davlatlar rivojlanishining tarixiy bosqichlarini o'rganish, ularning shakllanishi, sivilizatsiya turlarini tahlil qilish va tilni aniqlashda foydalanish imkonini beradi, ularning madaniy, ilmiy va texnik salohiyatini namoyon qiladi.

Semantik (mazmun) tuzilishiga ko'ra terminlar motivatsion va nomotivatsion terminlarga bo'linadi. Motivatsion terminlar, o'z navbatida, qisman motivatsiyalangan va to'liq motivatsiyalangan terminlarga bo'linadi. Birinchisining ma'nosini faqat ular hosil bo'lgan so'zlarning ma'nolarini qo'llash orqali qisman tushuntirish mumkin. To'liq asosli terminlar bo'lsa, ularning ma'nosi tuzilish elementlarining ma'nosi bilan to'liq ochiladi.

Terminologik birliklarning ma'no (mazmun jihatidan) va shakl (ifoda jihatidan) munosabatini qayd etib, terminologiyaning izchilligini ana shu munosabatdan kelib chiqib tushuntirish mumkin. Bizning fikrimizcha, terminologik birliklarning ob'ektiv xususiyatlari - ular belgilangan tarmoq tushunchalarining muvofiqligi bilan belgilanadigan ma'nodagi izchillik va terminologik birliklarning shakldagi izchilligi ma'lum bir terminologik birlik shaklining muvofiqlik darajasi bilan bog'liq. Terminologik tadqiqotlarda terminlarning ierarxik tasniflari ularning jins-tur va assotsiativ munosabatlarini hamda terminlar orasidagi boshqa mantiqiy-konseptual munosabatlarni aniqlash uchun quriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tushunchalarni tasniflash

tahlili terminlarni tizimli o'rganish bilan to'ldiriladi. Ma'lumki, soha terminologiyalari tizimli xususiyatga ega. Shuning uchun tadqiqotchilarning terminlarni ularning tizimli munosabatlarida o'rganishga qiziqishi tabiiy ko'rinadi. Terminologiya ko'plab terminologik mikrotizimlardan tashkil topgan fan tilining eng muhim qismi sifatida qaraladi. Bitta terminning ishlashi butun mikrotizimning tarkibiy va funksional fazilatlarini bilan belgilanadi va shu bilan birga, boshqa terminlar - xuddi shu mikrotizim elementlaridan foydalanishga ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, terminologik tizim tadqiqotlarida terminologiyani tizimli ravishda o'rganishga urinishlar qiziqarli ko'rinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan, bo'lsak yuqorida keltirilgan misollar orqali xulosa qilish mumkinki, aviatsiya sohasiso'zlar va terminlarga juda boy, ular o'z o'rnida, turlicha tuzilishga ega. Shuning uchun har bir so'zningstrukturaviy jihatlarini alohida va batafsil o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishnafaqat ilshunos olimlar, ilmiy tadqiqotchilar va izlanuvchilar, balki talabalar uchun ham juda ahamiyatli bo'lib, ularning mazkur soha to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada oshirishga, sohada mavjud bo'lgan so'zlarning nutqiy jarayonlarda to'g'ri qo'llanilishiga, so'zlovchi va tinglovchilarga tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulvohidova N. S., Qodirova M. T. Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati - T: 2022.
2. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. - T.: Ta'lim, 2009, 160 b.
3. Abdulvohidova N. S., Qodirova M. T. Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati - T: 2022.
4. Голованова Е. И. Введение в когнитивное терминоведение. М.: ФЛИНТА; Наука, 2011. 224 с.
5. Засорина Л. Н. Основы направления структурализма, М., 1964.
6. Каримов Ш. Б. Автореферат: Структурно-семантический анализ авиационных терминов в таджикском и английском языках. Д.: 2014. с 3.